



**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI**

**IQTIDORLI TALABALAR
ILMIY AXBOROTNOMASI**

2022-YIL 3-SON



Namangan davlat universiteti Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi.
Namangan, NamDU, 2022. – 452 bet. www.namdu.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori, Pedagogika fanlari doktori, professor S.T. Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor v.v.b. kimyo fanlari nomzodi, dotsent D.B.Dehqonov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Iqtidorli talabalarining ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i M.O.Habibullayev

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari – f-m.f.d., dots. B.Samatov; f-m.f.d. R.Xakimov

Kimyo fanlari – k.f.d., prof. Sh.Abdullayev; PhD. D.Xolmatov

Biologiya fanlari – b.f.d. A.Batashov; b.f.d. G'Abdullayev

Texnika fanlari – t.f.d., prof. S.Yunusov; t.f.n., dots. T.Saypiyev

Qishloq xo'jaligi fanlari – g.f.d., dots. B.A.Kamalov; q-x.f.n., dots. A.Qozaqov

Tarix fanlari – t.f.d., prof. A.Rasulov; t.f.n., dots. Z.Madraximov

Iqtisodiyot fanlari – i.f.d. dots. N.Sotivoldiyev; i.f.n., dots. K.Sirojiddinov

Falsafa fanlari – PhD., dots. R.Zamilova; f.f.n. O.Mamatov

Filologiya fanlari – f.f.d., prof. N.Uluqov; f.f.d., dots. H.Usmanova

Geografiya fanlari – g.f.d., dots. B.A.Kamalov, g.f.n., dots. E.A.Soliyev

Pedagogika fanlari – p.f.d. dots. O'Asqarova; p.f.n., dots. M.Nishonov,
p.f.n., dots. T.Ismoilov

Tibbiyot fanlari – b.f.d. G'Abdullayev; tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari – p.f.d., prof. Z.Nishanova; p.f.n., dots. M.Maxsudova

Texnik muharrir: Ilyosbek Mamatkarimov

Tahririyat manzili: Namangan shahar Boburshoh ko'chasi, 161-uy

Tel.: (69) 227-01-44, 227-06-12. **Faks:** (0369)227-07-61.

E-mail: iqtidorli@namdu.uz. **Telegram:** [@NamDU_iqtidor](https://t.me/NamDU_iqtidor)

Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi jurnali NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining navatdan tashqari 10.10.2022-yildagi kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 10).

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar javobgar hisoblanadi



olish uchun bolalarga yoshlikdan to'g'ri tarbiya berish, ulardan «bolaligini o'g'irlamaslik» kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Abdurahobova. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Jizzax davlat pedagogika instituti. Ma'ruzalar matni.
2. N.G'.Komilova "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Toshken-2007
3. E.G.G'oziyev. Tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasi: Lektorga yordam.
4. Psixodiagnostika elektron sayti. <http://psychology.com>
5. <http://library.ziyonet.uz> sayti.

MULOQOT SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Shuxratjonova Rixsinisaxon Nasrulla qizi
NamDU, Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annottatsiya: Ushbu maqolada shaxslararo munosabatlarda o'zaro muloqotning ahamiyati hamda samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность и эффективность общения в межличностных отношениях.

Abstract: This article discusses the importance and effectiveness of communication in interpersonal relationships.

Kalit so'zlar: shaxslararo munosabat, muloqot, refleksiya, steriotipizatsiya, muloqot psixologiyasi.

Ключевые слова: межличностные отношения, общение, рефлексия, стереотипизация, психология общения.

Key words: interpersonal relationship, communication, reflection, stereotyping, psychology of communication.

Bugungi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada taraqqiy etishi yoshlarimizning ma'naviy salohiyatiga, shaxsiy barkamolligiga ham bog'liqdir. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida inson beixtiyor shaxslararo munosabatlarga duch keladi. Polshalik psixolog E.Melibruda: "Muloqot – shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir", deb ta'kidlaganidek, inson ijtimoiy muhitda katta bo'lar ekan, u bevosita boshqa bir insonlar bilan o'zaro muloqotga ehtiyoj sezadi. Amerikalik psixolog A.Maslouning "Ehtiyojlar piramidasi" da ham muloqot ya'ni, biron ijtimoiy guruhda bo'lish, boshqa kishilar bilan aloqaga kirishish ehtiyojini piramidaning uchinchi (o'rt) bo'g'iniga kiritadi [1].

Bundan ko'rishimiz mumkin muloqot – shaxslararo munosabatlarning muhim omili hisoblanadi. Keling, avval muloqot tushunchasini mazmunan ko'rib chiqsak.



Muloqot — ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, bu ta’sir davomida axborot almashinadi, munosabat o‘rnatiladi, rivojlantiriladi ushbu jarayonning o‘zida muloqotga kirishuvchilar bir-birini idrok etishadi. Bu jarayon muloqotning perseptiv ya’ni idrok qilish jarayoni bo‘lib, kishining boshqa bir kishi tomonidan idrok qilinishi, tushunilishi va unga baho berishidir. Kishilar bir -birini idrok qilish jarayonida quyidagi mexanizmlar muhim sanaladi:

a) **Identifikatsiyash** – (lot. Identificare-bir biriga tenglashtirish) Shaxsning o‘zini fikran suhbatdoshga o‘xshatishi, tenglashtirishi;

b) **Refleksiya** – (lot. Reflexio-aks etish, orqaga qarash) ya’ni bunda, Subyektning atrofdagilar uni qanday baholayotganini o‘zi tomonidan idrok qilishi;

v) **Stereotipizatsiya** — (grek. o‘zgarishsiz, takrorlanish). Insonning suhbatdoshini tushunishga intilishi yo‘lida muayyan shablondan foydalanishi;

g) **Empatiya** – insonning o‘zini hayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yish orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi tushuniladi[2].

Quyidagi mexanizmlardan foydalana olgan kishilar shaxslararo munosabatda ijobiy yutuqqa erishishlari mumkin. Chunki, muomalada suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish – bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Va, albatta, Muloqot muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun, u qayta aloqaga ega bo‘lishi ya’ni sub’ekt o‘zaro ta’sir natijalari haqida axborot olishi lozim.

Shaxslararo munosabatlar haqida gapirar ekanmiz, muomila madaniyati haqida to‘xtalmay o‘tishning iloji yo‘q !

Muomila madaniyati – shaxs ma’naviyatining uzviy bir bo‘lagi bo‘lsa, xulq-atvor, odob-axloq va tarbiya uning zamiriga kiradi. Poetika, ritorika nazariyasi ilk tadqiqotchilaridan hisoblangan Aristotel san’at va madaniyat olamining paydo bo‘lishidagi ilk asos sifatida muomilani nazarda tutgani ham bejiz emas, albatta. O‘zbek xalqimiz doimo o‘zining urf odatlari, qadriyatlari va shu qatorda o‘zining muomila madaniyati bilan ham boshqa davlatlardan ajralib kelgan. Qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, yuzida samimiy tabassum bilan sizdan hol-axvol so‘raydigan, sizga va yaqinlaringizga sog‘lik tilaydigan xalq bu – O‘zbek xalqidir. Mulk sohibi bo‘lishdan ko‘ra, ko‘ngil sohibi bo‘lish haqida mumtoz adabiy meroslarimizda esa ibratomus fikrlar bisyor[3]. Bu esa yuqoridagi so‘zlarimizning tasdig‘idir.

Xulosa qilib aytganda, muloqot, muomala tushunchalari hozirgi vaqtlarda ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etishini barchamiz yaxshi



anglashimiz zarur. Xalqaro maydonda mafkuraviy hamda informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi tahliklali kunda yoshlarimizni: turli mafkuraviy hurujlardan himoya qilish, hayotga ongli munosabatlarini shakllantirish, atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik xissini oshirish, “jaxolatga qarshi ma’rifat” bilan baxslasha oladigan muloqot va muomila qiladigan iqtidorli notiqnlarni tayyorlashni talab qilmoqda.

Muloqot shaxslararo munosabatlarning muhim bir omili, bizga berilgan ne’matlarning bir bo’lagidir. Bizga shunday ne’mat ato etilgan ekan, bugun undan yuqori darajada foydalana olishimiz kerak. Inson avvalo, muomila madaniyatiga ega bo’lmas ekan uning bilim-tajribalariyu erishgan yutuqlari nolga tengdir. Shuni unutmashimiz kerak-ki, muloqot faqat so’zlashdan iborat emas. Shaxslararo munosabatlarda suhbatdoshni jim tinglay olish ham muloqotning asosiy qoidalaridandir!

Foydalangan adabiyotlar:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. –T., 2019
2. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti. –T., 2013.
3. Husanov B., G’ulomov V. Muomala madaniyati. –T., 2009.

OTA-ONA O’RTASIDAGI O’ZARO KELISHMOVCHILIKLARNING BOLA ONGIGA TA’SIRI

Oqilova Zuhra

Namangan davlat universiteti
Pedagogika-psixologiya fakulteti
Amaliy psixologiya yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ota-onalarning o’zaro nizolari farzandning ongi, tarbiyasi, kelajagi va butun bir hayotiga ta’siri haqida fikr yuritilgan. Maqola asosan ota-onalar uchun mo’ljallangan.

Kalit so’zlar: E’tibor, mehr, iroda, q’o’rquv, hasad, ong, qat’iyat, jur’at aksentuatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается будущее родительских конфликтов в сознании детей и их влияние на всю их жизнь

Ключевое слово: Внимание, больше, ревность, страх, опрорделение, осмелиться.

Annotation: This article discusses the future of parental conflict and the impact of parental conflict on a child’s entire life.

Keywords: Attention, feat, jealousy, determination, dare.

Har qanday jamiyatda oilaning, oilalar mustahkamligining o’rni beqiyos. Jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola



Z.I.Abduraximova, N.N.Karimov. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga ekologik ta'lim berishda texnologiyalardan foydalanish..... 375

M.B.O'rmonboyeva. Fizika fanidan masala yechish va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tishda talabalarni ilmiy va ijodiy izlanishlarga o'rgatish380

M.B.O'rmonboyeva. Fizikani fanlar bilan bog'lab o'qitish imkoniyatlari va unga doir materiallarni tanlash bo'yicha metodik tavsiyalar..... 382

17.00.00

**SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
ИСКУССТВО НАУКИ
THE ART OF SCIENCE**

S.Q.Maxkamjanov. Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa fanining roli.....386

A.A.Rejabboeva. Санъат – инсон эстетик онгини шакиллантирувчи восита сифатида389

M.Jo'raboyeva. Musiqa asboblarini bolalarga tanishtirish yo'llari..... 398

19.00.00

**PSIXOLOGIYA FANLARI
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PSYCHOLOGICAL SCIENCES**

B.Rayimxo'jayeva. Ilk bolalik davrida bolalarning o'z-o'zini anglash xususiyatlari .402

B.R.Tursunboyev, M.Y.Mirvaliyeva. Addiktiv xulq psixologiyasi.....405

Sh.Mingboyev. Internet olamining o'smir psixikasiga ta'siri.....410

A.I.Kamoldinov. Suitsidial motivning psixologik mexanizmlari 414

S.Solmonova, D.Solmonov. O'smirlarda og'ishgan xulq shakllarining rivojlanish mexanizmlari418

R.N.Shuxratjonova. Muloqot shaxslararo munosabatlarning muhim omili sifatida422

Z.Oqilova. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar bola ongiga ta'siri.....424

K.M.Umarova. Psixologiyada baxt tushunchasi.....426

M.Y.Mirvaliyeva, Z.Y.Mirvaliyev. Shaxs og'ishgan axloqining prevensiyasi va intervensiyasi.....429

M.B.Abduxakimova. Ёшлар бузғунчи ғояларга қарши.....435